O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGGIKA UNIVERSITETI

**“Tasdiqlayman”**
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori Sh.S.Sharipov

________________________

2022 yil “____”__________

# HARAKATLI O‘YINLAR VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINING O`QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 –Ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 110000 –Ta’lim

**Ta’lim yo‘nalishi:** 61010300 - sport faoliyati (Kurash)

**Jizzax - 2022**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/Modul kodi 351HO'O'M06 | | O`quv yili 2022-2023 | 6 | Kreditlar 3 |
| Fan/Modul kodi Majburiy | | Ta`lim tili · O`zbek | | Haftadagi dars soatlari (4) |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg`ulotlari (soat) | Mustaqil ta`lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi | Maruza:10-soat Amaliy:72-soat Seminar: 8-soat | 90 | 180 |

**2**

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni maqsad** –harakatli o'yinlarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, har bir harakatli o'yinlar o'yinlar tarbiyaviy va pedagogik axamiyati, harakatli o'yinlarni umumiy tavsifi, umumta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishga usullari haqida nazariy ma'lumotga ega qilish, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar to'g'risida ma'lumotlarga ega qilish.

**Fanning vazifasi** – Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanini bo'lajak mutaxassislarga harakatli o'yinlarni tashkil qilish, tahlil qilish, harakatli o'yinlarni bolalarning yoshiga mos holda tanlashni amaliy tanishtirish, harakatli o'yinlarda hakamlik qilish malakalarini shakllantirish, sport bayramlari va turli sanalarga bag'ishlangan musobaqalar o'tkazish usullarini va senariylarini tuzishga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va oshirish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

**II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari 10-soat)**

**II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi faniga kirish.(2-soat)**

Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari. Harakatli o'yinlarni qisqacha tarixi, rivojlanishi va tushunchasi, harakatli o'yinlarning milliy qadriyatlarimizdagi o'rni, harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olish, harakatli o'yinlarni rivojlanish bosqichlari va pedagogik ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**2-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar. (2-soat)**

Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va umumta'lim maktab o'quvchilarining yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda o'yinlarni me'yorlash va o'tkazish uslubiyatlari.

**3- Mavzu: 5-8-sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar. (2-soat)**

Umumta'lim maktab 5-8-sinf o'quvchilarig beriladigan harakatli o'yinlarni mazmunini tushuntirish, o'yinlarni tavsifi, rivojlanish bosqichlari va harakatli o'yinlarni ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, sog'lomlashtiruvchi ahamiyatlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**4- Mavzu: 9-11-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar. (2-soat)**

Umumta'lim maktab 9-11-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni tashkil qilish, tahlil qilish, harakatli o'yinlarni bolalarning yoshiga mos holda tanlashni amaliy tanishtirish, harakatli o'yinlarda hakamlik qilish usullarini o'rganish. Milliy harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya darslarida qo'llashdan, ota bobolarimizdan



qolgan milliy o'yinlarimizni tarbiyaviy ahamiyati.

**5- Mavzu: Axoli yashash joylarida katta yoshdagilar bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar. (2-soat)**

Axoli yashash joylarida va turli maskanlarda harkatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish. Harakatli o'yinlarni mazmunini tushuntirish, o'yinlarni tavsifi, rivojlanish bosqichlari va harakatli o'yinlarni ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, sog'lomlashtiruvchi ahamiyatlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Har bir harakatli o'yinni tarbiyaviy pedagogik ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

**III.Amaliy mashg`ulotlari bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar.**

Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg`ulot darslari sport maydoni va sport zallarida tashkil qilinadi. Amaliy mashg'ulotda talabalar harakatli o'yinlar mazmuni va qoidalari bilan tanishtirilib ularga zarur ko`rsatma tavsiyalar beriladi. Amaliy mashg'ulotlar darsi uchun zarur ko`rsatmali va tarqatmali materiallarni va bilan jihozlangan sport maydonlarida har bir akademik guruhga alohida o'tiladi Amaliy mashg`ulotda ko`proq talabalar bilan guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib harakatli o'yinlar tashkil qilib o'rganadi

**III.1. Amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.(72-soat)**

1-mavzu. Maktabgacha ta'lim yashdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlar.(chumchuq va avtomobil,poyez,kaptokni quvib yet). (2-soat)

2-mavzu.MTMda 3-7-yoshdagi bolalar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar.(tegirmonda to'p, doiradan chiqar, hayvonlar qiroli). (2-soat)

3-mavzu. Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar ("Sinf tekislan!", "Taqiqlangan harakat" "Hamma tezda o'z joyiga") o'rgatish. (2-soat)

4-mavzu. 1-sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan ("Kim ko'p yong'oq yig'ish", "To'pli estafeta", "Quvlashmachoq" "Olib qochar") harakatli o'yinlar o'rganish. (2-soat)

5-mavzu. Umumta'lim maktablarida 1-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar("Sakra bodom chumchuqlar", "O'z rangingni top","Kuchlilar va chaqqonlar", "Uzatdingmi o'tir") . (2-soat)

6-mavzu. 2-sinf jismoniy tabiya darslarida tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar(raqam bilan chaqirish, tonnel, ikki ayoz, zovurdagi bo'ri, bo'sh o'rin)ni o'rgatish. (2-soat)

7-mavzu. Tortishmachoq, Mergan bola, Mashqni bajar va eslab qol,lafta, arg'amchi bilan estafeta, harakatli o'yinini o'rgatish. (2-soat)

8-mavzu. Boshlang'ich 2-sinf jismoniy tarbiya darsida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar(To'pni aylana ichiga tushirma, To'siqlardan oshib o'tish, Savatga to'p tushirish,To'pli estafeta). (2-soat)

9-mavzu. Boshlang'ich 3-sinf o'quvchilari uchun beriladigan harakatli o'yinlar(Olimpiya globusi, Mergan bola, "O'rmon, botqoq, dengiz", Doira bo'ylab katta estafeta). (2-soat)

10-mavzu. Oq suyak, Chavandozlar, Kun va tun, Insiz quyon,harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'rgatish.(3-sinflar uchun). (2-soat)

11-mavzu. Umumta'lim maktablarida 3-sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar(Nina, ip va tuguncha, Qopqon, To'pni tez ol, Arqonni tort)ni o'rganish. (2-soat)

12-mavzu. Polizga kirgan quyonlar, kartoshka ekish, har kim o'z bayroqchasiga harakatli o'yinlarini tashkil qilish va o'rgatish. (2-soat)

13-mavzu. Xo'rozlar jangi, eshshak mindi, besh tosh, juftmi-toq milliy harakatli o'yinlarini tashkil qilish va unga rahbarlik qilishni o'rganish. (2-soat)

14-mavzu. Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni tashkil qilishni o'rgatish (To'pni tushirib yuborma, Lafta, Sakrab va o'rmalab o'tish estafetasi, Ilon izi bo'lib yugurish). (2-soat)

15-mavzu. Yo'laklar bo'ylab sakrash, To'pni savatga tashla, qish va bahor tortishuvi harakatli o'yinlarini o'rgatish. (2-soat)

16. O'rta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish (Cho'nqa shuvoq, Qirq tosh, Cho'pon" yoki "Podachi, Arqon talashish). (2-soat)

17-mavzu. 5-8-sinf o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darsida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar (Chavandoz, Kichik uloq, Chillak, Lanka, Danak yashirish). (2-soat)

18-mavzu. 9-11-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar (Oshiq, to'p uchun kurash, To'p ushlovchiga, to'p kapitanga) . (2-soat)

19-mavzu. Futbol elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar (To'pni uzatish va tepish, hujum, bulavalardan to'pni olib o'tish). (2-soat)

20-mavzu. Bosh bilan nishonga tekazish, epchil darvozabon, hujum,futbol estafetasi, harakatli o'yinlarini o'rgatish. (2-soat)

21-mavzu. Voleybol elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish (to'p onaboshiga, voleybolchilar estafetasi,to'pni yerga tushurma, to'pni boshidan oshirib uzatish). (2-soat)

22-mavzu. Basketbol elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish (to'pni savatga tashlash, basketbol musobaqasi, to'p uchun kurash, to'pni olib yurish va savatga tashlash). (2-soat)

23-mavzu. Qo'l to'pi elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish ( qa'la himoyasi, to'p ushlovchiga, bayroqcha uchun kurash). (2-soat)

24-mavzu. Katta yoshdagi bolalarga beriladigan milliy harakatli o'yinlarni o'rgatish (oq terakmi ko'k terak, eshshak mindi, xo'rozlar jangi, kim oladi). (2-soat)

25-mavzu. Darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni tanlash va tashkil qilishni o'rganish ( mushik-sichqon, pat, aylanma darra, bo'sh joy). (2-soat)

26-mavzu. Kurash elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish (yelkada kurash, kvadratda kurash, doiradan chiqarish). (2-soat)

27-mavzu. Estafetali harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'rgatish (doira estafetasi, chambarakdan joy olish, to'siqlardan oshib yugurish). (2-soat)

28-mavzu. Sport bayramlarini o'tkazishda tashkil qilinadigan milliy harakatli o'yinlarni o'rganish (tosh ko'tarish, arqon tortishish, besh tosh, xo'rozlar jangi). (2-soat)

29-mavzu. Nutqni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish(qopqon, quvnoq bolalar, oq ayiq, ayiqpolvon bog'ida). (2-soat)

30-mavzu. Ko'chma nishon, to'xtatib urish, kartoshka ekish harakatli o'yinlariga rahbarlik qilish. (2-soat)

31-mavzu. Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish (topshiriqli estfeta, to'pni tashish, kuchlilar va chaqqonlar). (2-soat)

32-mavzu. Axoli yashash joylarida katta yoshdagilariga beriladigan harakatli o'yinlarni tanlash va tashkil qilish. (2-soat)

33-mavzu. Istirohat bog'larida va axoli dam olish maskanlarida kata yoshdagilar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar. (2-soat)

34-mavzu. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni o'rganish. (2-soat)

35-mavzu. Nogironligi bor boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni o'rganish. (2-soat)

36-mavzu. Sog'lomlashtiruvchi hamda hordiq chiqaruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish. (2-soat)

**III.1. Seminar mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**



Seminar mashg`uloti oliy ta`lim muassasi talabalarining muayyan nazariy kursni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv amaliyotining muhim turlaridan biri. Talaba tomonidan bajarilgan mashg`ulotning muhokamasidan iborat. Seminar, albatta, mavzuni ilmiy tadqiq etgan professoro'qituvchi yoki tegishli mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. O'quv predmeti harakteri, mashg'ulot maqsadi, o'quv yurti yo'nalishiga ko'ra ayrim o'ziga xosliklar bilan universitet, institut hamda xalq xo'jaligi sohalarida keng tarqalgan. Ba'zan ma'ruzaga bog'liq bo'lmagan holda, muayyan mavzudagi mustaqil ta'lim shakli sifatida ham o'tkaziladi.

**Seminar mashg`uloti muayyan predmetni chuqur o'rganishga yo'naltiriladi.**

Seminar mashg'ulotlari davomida talabalar ilmiy ish yuritish tajribasi, o'z xulosalarini og'zaki va yozma ravishda ifodalay olish hamda nuqtai nazarlarini asosli himoyalash malakasiga ega bo'ladilar.

**Seminar mashg'ulotlari 3 turda tashkil qilinadi:**

a) Muayyan kursni chuqurlashtirib o'rgatishga yo'naltiriladi;
b) Kurs doirasida asosiy va muhim hisoblangan mavzularni o'rganishga qaratiladi ;
s) Ilmiy izlanishga yo'naltirilgan, ma'ruza mavzusiga aloqador bo'lgan topshiriqlar beriladi.

Seminar mashg'uloti o'tkazishning asosiy shartlaridan biri barcha ishtirokchilar uchun mavzu yoki mutaxassislikka bog'liq adabiyotlar, manbalar, arxiv materiallari va qo'lyozmalardan foydalanishda birdek imkoniyat yaratililasdi.

**III.1. Seminar mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi. (8-soat).**

1-Mavzu: Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi faniga kirish. (2-soat)
2-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar.(2-soat)
3-Mavzu: 5-8-sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar.(2-soat)
4-Mavzu: 9-11-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlar.(2-soat)

**IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**

**IV. Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari**

**Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim:**

- auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;
- auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;
- fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.

**Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:**

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;
- kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;

- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash;

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar.
3. Makatabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
4. Umumta'lim maktab 1-4-sinf o'quvchilarig beriladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
5. Axoli yashash joylarida katta yoshdagilar bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar..
6. Umumta'lim maktab 5-8-sinf o'quvchilarig beriladigan harakatli o'yinlar.
7. Umumta'lim maktab 9-11-sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni tashkil qilish, tahlil qilish va o'rganish.
8. Sog'lomlashtiruvchi hamda hordiq chiqaruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish.
9. Harakatli o'yinlarni rejalashtirish va nazorat qilish, harakatli o'yinlar jarayonida sport anjomlari va inshootlaridan foydalanishni o'rganish.
10. Bayram tadbirlarini o'tkazish jarayonida harakatli o'yinlarni o'rganish.
11. Sport turlariga xos harakatli o'yinlarni o'rganish.
12. Kurash elementlarini o'rgatuvchi xos harakatli o'yinlarni o'rganish.
13. Futbol elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar o'rganish.
14. Voleybol elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rganish.
15. Qo'l to'pi elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar o'rganish.
16. Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish.
17. O'rta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish.
18. Katta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish.
19. Turli yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan darsdan tashqari vaqtda qo'llaniladigan o 'yinlarni o'rganish.
20. Estafetali harakatli o'yinlarni o'rganish.
21. Suvda o'ynaladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
22. Nutqni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rganish.
23. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda o'tiladigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
24. Darsdan tashqari o'ynaladigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
25. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darsida qo 'llaniladigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
26. Harakatli o'yinlariga rahbarlik qilish uslublarini o'rganish
27. Harakatli o'yinlarga o 'qituvchining raxbarlik qilish vazifalari.
28. Harakatli o'yinlarga hakamlik qilish usullari o'rganish.
29. Kun tartibida sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda qo'llaniladigan o'yinlar haqida ma'lumot o'rganish.
30. Sport tadbirlari va darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
31. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
32. Axoli yashash joylarida katta yoshdagilariga beriladigan harakatli o'yinlarni tanlash va tashkil qilishni o'rganish.
33. Umumta'lim maktablarida 1-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlarni o'rganish.
34. Umumta'lim maktablarida 2-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
35. Umumta'lim maktablarida 3-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
36. Umumta'lim maktablarida 4-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
37. Umumta'lim maktablarida 5-8-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
38. Umumta'lim maktablarida 9-11-sinf o'quvchilari bilan o'tkziladigan harakatli o'yinlar o'rganish.
39. Nutqni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rganish.
40. Istirohat bog'larida va axoli dam olish maskanlarida kata yoshdagilar bilan tashkil qilinadigan harakatli o'yinlarni o'rganish.

**IV.2. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.**

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- harakatli o'yinlar chizmasini chizish va o'yin variantlarini ishlab chiqish;
- harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fani bo'yicha maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fani bo'yicha kerak bo'sport anjomlarini o'rganish;
- harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanidan talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanidan faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari o'rganish;
- masofaviy ta'lim.

**V.Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari; harakatli o'yinlar tarixi va qisqacha tushuncha, turkumlari, rivojlanish bosqichlari va pedagogik ahamiyati; harakatli o'yinlarni bolani yoshiga mos holda tanlash, tahlil qilish va o'tkazish metodikasi; harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi; sport bayramlarini o'tkazishda harakatli o'yinlardan foydalanish, - sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o'rni va ahamiyatini bilishi; o'yin texnikasi tasnifi; o'yin taktikasi tasnifi; maydon o'lchamlari, jihozlari va o'yin qoidalari ***haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***

- harakatli o'yinlarni darsning asosiy qismiga mos holda tanlash va tahlil qilish;

kichik, o'rta va katta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish; estafetali harakatli o'yinlar, nutqni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar, suvda o'ynaladigan harakatli o'yinlar, darsdan tashqari o'ynaladigan harakatli o'yinlar, harakatli o'yinlar orqali sport o'yinlari elementlarini, jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar, sog'lomlashtiruvchi hamda hordiq chiqaruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish;

***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

**VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari**

- ma'ruza;
- keys-stadi;
- individual loyihalar;
- taqdimotlar qilish;
- guruhlarda ishlash;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;
- "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU";
- o'yin, musobaqa, aylanma trenirovka, takroriy mashq, o'zgaruvchan mashq, qat'iy tartiblashgan mashqlar.

**VII.Kreditlarni olish uchun talablar.**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

**Yakuniy nazorat**

Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

**Asosiy adabiyotlar**


1. T.S. Usmanxodjayev, I.I.Burnashev, X.A.Meliyev, B.B. Qipchoqov, 500 harakatli o'yinlar "o'quv qo'llanma" T.2012 y.
2. T.S.Usmanxodjayev, SH.X.Isroilov, A.A.Pulatov, SH.A.Pulatov, Milliy va harakatli o'yinlar, darslik. T.2015y
3. Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o'yinlari" O'quv qo'llanma T.: 2012 y.
4. T.S.Usmanxodjayev, X.A.Meliyev,Milliy "Xarakatli o'yinlar" o'quv qo'llanma.T.2014y
5. P. Xo'jayev, K.Q.Raximqulov, B.B.Nigmonov, Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma, Toshkent 2010y


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


6. Axmedov F.Q., Atamurodov Sh.O'. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 yil..
7. T.S.Usmanxodjayev, X.A.Meliyev, M.Nuriddinova, A.I.Olimov, Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, O'quv-uslubiy qo'llanma. T.2019y




**Elektron ta'lim resurslari:**

8. https://www.sciencedirect.com www.edu.uz
9. https://www.sciencedirect.com
10. http://ziyonet.uz — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali

Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi fanining o`quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__ yil "___" _________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.

| | |
|---|---|
| 7 | **Fan/modul uchun ma`sullar:**<br>1. N.Kulboyev "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi v/b dotsenti:<br>2. I.Xaydarov."Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi: |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>1. X.A.Meliyev JDPU.Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri professor.<br>2. I.I.Saidov Buxora Davlar Universiteti p.f.b.f.d(PhD) dotsenti |